



German onomastics

Ra'no MASARIDDINOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2024

Keywords:

Language system,
proper nouns,
proper nouns,
“Onomastics”,
knowledge,
skills,
abilities,
education of the younger
generation,
German onomastics.

ABSTRACT

Proper nouns are a special phenomenon in the language system. Teaching “Onomastics” as a separate subject in higher education institutions is of great importance in educating the younger generation with sufficient knowledge, skills and abilities in the field of proper nouns. This article covers the concepts of German onomastics.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp171-175>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nemis onomastikasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Til tizimi,
atoqli otlar,
lusoniy hodisa,
Onomastika,
bilim,
malaka,
ko'nikma,
yosh avlodni tarbiyalash,
nemis onomastikasi.

Til tizimida atoqli otlar alohida o'rin tutadigan lusoniy hodisa sanaladi. “Onomastika”ni alohida fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitish atoqli otlar borasida yetarli bilim, malaka va ko'nikmaga ega yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada nemis onomastikasiga oid tushunchalar yoritildi.

¹ Teacher, Department of German Philology, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Немецкая ономастика

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Языковая система,
имена собственные,
лусонский феномен,
Ономастика,
знания,
умения,
навыки,
воспитание
подростающего
поколения,
немецкая ономастика.

Имена собственные – языковое явление, занимающее особое место в языковой системе. Преподавание «Ономастики» как отдельного предмета в высших учебных заведениях имеет большое значение для воспитания подрастающего поколения, обладающего достаточными знаниями, умениями и навыками в отношении благородных лошадей. В статье рассматриваются концепции, связанные с немецкой ономастикой.

Bugungi taraqqiyot salohiyatli kadrlar yetishtirishni, texnologik jihatdan yangi bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislarga ega bo'lishni talab etmoqda. Onomastik birliklar – atoqli otlar borasida kerakli mutaxassislarni tayyorlash faqat filologiya sohasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishgina emas, balki mafkuraviy, siyosiy-ma'rifiy ishlarining ham eng muhim tomonlaridan birini tashkil etadi. Shuning uchun ham bu kursni o'rganish bo'lajak o'qituvchilar uchun zaruriy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj o'z yurti, yashash makoni, atrofidagi olamni o'rganish, til va xalq tarixidan xabardor bo'lish, atoqli otlardan adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri foydalanish, ularni ma'naviy boylik sifatida asrash kabilar bilan uzviy bog'liqdir.

Darhaqiqat, tilshunoslikda atoqli otlar deb yuritilayotgan nomlar tilimizning bebaho tarixiy, madaniy va ma'naviy boyligidir. Bu boylik o'zbek tilida ko'p asrlar davomida astasekinlik bilan tarkib topib, shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Atoqli otlar jamg'armasini asrash, uni yangi nomlar bilan to'ldirib borish, ilmiy asosda o'rganish har birimizning muqaddas burchimizdir.

“Onomastika” deb nomlanuvchi fanning asosiy vazifasi mazkur sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o'rganish metodlari va boshqalar haqida talabalarga zarur tushuncha va ma'lumotni berishdan iboratdir. Ma'lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek tildagi barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydi. “Onomastika” fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

“Onomastika” fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko'ra quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi:

antroponim – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari),

toponim – geografik obyektlarning atoqli nomlari,

teonimiya – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari,

zoonim – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar,

kosmonim – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari,

astroponim – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyini o'zida ifodalaydi.

Bundan tashqari, onomastikaning yana bir qancha bo'lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo'limi realionimlar (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo'lgan mifonimlar xayoliy to'qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o'rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo'lib, bu badiiy onomastika yoki onomopoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo'llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o'rganadi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi, transliteratsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, "begona" nomlarni o'z tilda qanday yozish bo'yicha yo'riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o'zlashtirish masalalari bilan ham shug'ullanadi.

Onomastik birlikning til tizimidagi o'rni. Leksika tizimiy qurilishining to'la-to'kis isbotlanishi leksikologik tadqiqotlar oldiga juda ko'p yangi muammolarni ham qo'ydi. Bu muammo va vazifalarning bir qismi sistemaviy leksikologiya bo'yicha o'quv qo'llanmasida sanab o'tilgan, bir qismi esa keyingi tadqiqotlarda ko'tarildi. Ammo ularning kattagina bir qismi ilmiy adabiyotlarda haligacha o'rtaga qo'yilmagan. Shunday hali yechilmagan muammolardan biri leksikaning tizimiy tabiati va unda onomosinonimlarning shu lug'at tizimidagi o'rnidir.

Ko'p tillilik sharoitida o'zaro aloqa qilish shakllari (tillar, lahjalar, shevalar, ijtimoiy va professional jargonlar kabi) funksional jihatdan iyerarxiya (pog'ona)ni tashkil etadi, mas:

- 1) guruhlararo aloqaning chegaralangan vositalari ("xonaki" tillar);
- 2) turmushdagi guruhlararo aloqa aralashuvning muayyan joyga xos vositalari (Osiyo va Afrikadagi ko'p qabilali qishloq jamoalaridagi "bozor" tili);
- 3) ma'muriy (yoki milliy) viloyat tili;
- 4) kup millatli mintaqqa tili;
- 5) umumdavlat tili ("davlatdagi ustun" yoki xalqaro til bo'lishi ham mumkin).

Agar dastlabki ikki bosqich tillari asosan norasmiy og'zaki aloqa uchun xizmat qilsa, keyingi bosqichdagilari uchun, mazkur vazifalardan tashqari, yana ommaviy va rasmiy (ko'pincha yozma) aloqa xizmatlari ham qo'shib, ular ta'lim, axborot vositalari, adabiyot, madaniyat, har tillariga aylanadi.

Ko'p tillilik aksar hollarda ikki tillilik (bilingvizm) shaklida amalga oshadi. Uch yoki undan ortiq'ini ommaviy ravishda egallash (bilish) nisbatan kam uchraydi. Ko'p tillilik (bilingvizm) uchup amalda qo'llanuvchi tillarning funksional maqomi va ularning (genetik yoki tipo-logik) yaqinlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Ko'p tillilik negizida tillarning o'zaro ta'sirlashuvi va yaqinlashuvi ro'y bs-radi, tillar ittifoqi hosil bo'ladi. Odam tabiiy ravishda bir nechta tillarda muloqot qila oladigan bo'lsa, ayniqsa ular yoshligida ko'nikmalarni egallagan bo'lsa, ko'p tilli deb aytiladi.

Ko'p tilli odamlarning ta'kidlashicha, ularning shaxsiyati o'zgaradi ular foydalanadigan tilga qarab; ushbu o'zgarishlar ba'zi tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Biroq, umuman olganda, ular har bir til o'zaro bog'laydigan madaniyatga qarab, ishlatilgan tildan mustaqil bo'lishiga qarab, turli xil kontekstual asoslarni qabul qilish bilan bog'liq.

Nemis tili frank, saks, turing, alemann, bavar singari g'arbiy german kabilalari shevalari asosida tarkib topgan va quyi nemis, o'rta nemis va jan. nemis lahjalariga, har bir lahja guruhi esa g'arbiy va shar-qiy guruhchalarga ajraladi. Nemis tilining taraqqiyot tarixida milliy tilgacha bo'lgan (16-asrgacha) va milliy til (18-asrdan) davrlari farqlanadi; 16-17-asrlar o'tish davri hisoblanadi. Hozirgi ada-biy til me'yorlarining shakllanishi asosan 18-asr oxirida tugallanib, bu davrda grammatik tizim va imlo barqarorlashgan.

Hozirgi Nemis tili fonologik tizimida monoftong va diftonglar 45 foizni tashkil etadi (16 unli fonema va 3 diftong); undoshlar tizimi 18 undosh fonema va 2 qorishiq tovushdan iborat. Barcha fonemalar hosil bo'lish o'rni, usuli va talaffuzi jihatidan o'zaro farqdanadi, muayyan o'ziga xosliklarga ega. Gramatik qurilishi analitiksintetik xususiyat bilan ajralib turadi. Mas, otlarda jins va kelishik shakllari, asosan, analitik tarzda, son kategoriyasi esa sintetik tarzda ifodalanadi. Bu holat boshqa so'z turkumlaridagi shakllar ifodasida ham ku-zatiladi. Gapning asosiy turi fe'l markazli ran. Yasama, qo'shma fe'llardan ifodalangan kesim qismlarining ran tarkibida distant holatda qo'llanishi Nemis tilining aloqida xususiyati hisoblanadi.

So'z yasash vositalari tizimi yaxshi rivojlangan; so'z qo'shish bilan ot (asosan, termin) yasalishi keng qo'llanadi. Lug'at tarkibida asl nemischa so'zlar qatori lotin, fransuz, italyan, ingliz va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham ko'plab uchraydi. Yozuvi lotin grafikasiga asoslangan.

Adabiy Nemis tilining Avstriya va Shveysariyadagi variantlari Germaniyadagi variantidan adabiy tildan turlicha foydalanish va uning lahjalar hamda so'zlashuv tiliga munosabati nuqtai nazaridan o'zaro farqdanadi.

Nemis tili uzoq vaqtdan beri eng uzun so'zli til ekanligi bilan mashhur ekanligi barchamizga ma'lum. Bu tilning so'z yasalishi Wortbildung deb ataladi. Ushbu termin haqida shunday deyish mumkin. Zamonaviy nemis tilida Wortbildung so'z yasash atamasini ikki ma'noda ishlatiladi. Birinchi ma'nosi "so'z yasalishi" bo'lsa, ikkinchisi "so'z yasalishi haqidagi ta'limot", ya'ni so'z yasash vositalari, qonunlari, modellari va metodlari hamda yangi hosil bo'lgan so'zlarning ma'nosini o'rganish bilan shug'allanuvchi tarmoqdir. Bugungi kunda nemis tilida so'z yasash yangi so'zlarni hosil qilishning keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib kelmoqda. Barcha tillarning o'ziga xos so'z yasash usullari mavjud bo'lib, ular bu xususiyatlari orqali bir-biridan farq qiladilar. Nemis tilining farqli jihati shundan iboratki, uning asosiy so'z yasash usullari Komposition (Zusammensetzung) va Ableitung (Derivation) hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan affikslarning joylashish turlari haqida hamda nazariy materialni o'rganish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Tilshunos olimlar tomonidan so'zlarning yasash masalalari oldindan chuqur va katta e'tibor bilan o'rganilgan. Yangi so'zlar yasashining eng samarali usullaridan biri bu affiksatsiyadir. Uning mohiyati shundaki, so'zning leksik ma'nosini o'zgartiradigan affiks so'zning asosiga qo'shilishni taminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunov U, Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Fan, 1992. – 399 b.
2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T.: O'qituvchi, 1995. – 127 b.
3. Ne'matov H., Rasulov R. Ko'rsatilgan asar. –B.4.
4. Nafasov T. O'zbek nomnomasi. –Qarshi, Nasaf, 1993. – 152 6.;
5. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya: filol. fanl. nomzodi. diss. avtoref. –T., 1996. – 21 b.;
6. Saidova H. O'zbek tilida hayvon nomlarining shaxs tavsifi vazifasida qo'llanilishi: filol.fanl.nomz...diss. avtoref. –Samarqand, 1995. – 20 b.;
7. Kilichev B. O'zbek tilida partonimiya: filol.fanl. nomz ... diss. avtoref. –T., 1997. – 22 b.